# XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar VI-76-1-7-93-K/23 Bulung’ur tuman hokimligi

**Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2021-yil yakuni bilan Bulung‘ur tumani mahalliy budjetining kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilga mo‘ljallangan VI-51-117-7-93-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 148-moddasiga asosan xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2021-yil yakuni bilan Bulung‘ur tumani mahalliy budjetining kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilga mo‘ljallangan VI-51-117-7-93-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining yetmish oltinchi sessiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi “2021-yil yakuni bilan Bulung‘ur tumani mahalliy budjetining kutilayotgan ijrosi hamda 2022-yilga mo‘ljallangan VI-51-117-7-93-K/21-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. 2022-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budejtining daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga hamda 2022-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan harajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (J.Narziyev) tuman mahalliy budjetining 2022-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

**Kengash raisi** **S.Astonov**

Xalq deputatlari Bulung’ur tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-76-1-7-93-K/23-son qaroriga
1-ilova

**1-ilovaning** matni quyidagi tahrirda bayon etilsin

## 2022 yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjetining daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

| T/R | Daromad turlari | Jami |
|---|---|---|
| **JAMI** | | **106 596 826** |
| 1 | Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i | 1 815 950 |
| 2 | Aylanmadan olinadigan soliq | 8 755 500 |
| 3 | Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i | 21 769 860 |
| 4 | Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i | 1 464 000 |
| 5 | Aksiz solig‘i, jami | 11 428 000 |
| | *shu jumladan:* | |
| | *- yakuniy iste’molchilarga benzin dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i* | |
| 6 | Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq | 2 134 000 |
| 7 | Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i | 5 070 000 |
| 8 | Yuridik shaxslar yer solig‘i | 9 081 700 |
| 9 | Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i | 9 066 300 |
| 10 | Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq | 2 200 000 |
| 11 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 1 546 316 |
| 12 | Yig‘imlar | 1 455 000 |
| 13 | Ijara | 16 200 |
| 14 | Alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo | 11 655 000 |
| 15 | Mobil aloqa xizmati | 6 640 000 |
| 16 | Sigaret uchun aksiz solig‘i | 12 499 000 |

Xalq deputatlari Bulung’ur tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-76-1-7-93-K/23-son qaroriga
2-ilova

**2-ilovaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin

## 2022-yil uchun Bulung‘ur tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming.so‘mda)

| T/R | Ko‘rsatkichlar | Miqdori |
|---|---|---|
| **Bulung‘ur tumani bo‘yicha xarajatlari Jami** | | **254 671 416,6** |
| 1 | Tuman Maktabgacha ta’lim bo‘limi | 30 781 473,5 |
| 2 | Tuman Xalq ta’limi bo‘limi | 12 404 895,8 |
| 3 | Tuman Tibbiyot birlashmasi | 72 372 873,8 |
| 4 | Tuman Madaniyat bo‘limi | 4 718 362,9 |
| 5 | Tuman Bolalar va o‘smirlar sport maktabi | 2 668 749,2 |
| 6 | Tuman Qishloq xo‘jalik bo‘limi | 2 450 787,0 |
| 8 | Tuman Irrigatsiya bo‘limi | 1 231 010,9 |
| 9 | Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi | 1 265 931,6 |
| 10 | Tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi | 796 038,5 |
| 11 | Tuman Moliya bo‘limi | 2 001 359,7 |
| 12 | Tuman hokimligi | 116 690 132,2 |
| 13 | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi xalq qabulxonasi tuman bo‘limi | 616 772,1 |
| 14 | Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashi | 215 202,0 |
| 15 | Tuman Mahalla va nuroniylarni qullab-quvvatlash bo‘limi | 501 033,0 |
| 16 | Yoshlar agentligi Bulung‘ur tuman bo‘limi | 4 042 861,9 |
| 17 | O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tuman bo‘limi | 1 913 932,5 |